



SUN'IY INTELLEKTNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Mualliflar: Jurakulova Dildora Ziyodullayevna¹

Affiliyatsiya: Xalqaro Nordik universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17350359>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sun'iy intellekt inson hayotida asosiy o'rin egallayotganini ko'rishimiz mumkin. Katta hajmli ma'lumotlarni misollar orqali keltirish, ularni qayta ishlash jarayonida insonlarga sodda va qulay tarzda yetkazishdan iboratdir. Sun'iy intellektning afzalliklaridan biri bunday tizimlar vaqtni tejaydi, navbat kutish yoki qo'l bilan bajariladigan ishlarga sarf etiladigan vaqtda insonga boshqa unumli mehnat bilan shug'ullanish, o'z ustida ishlash imkonini berishi haqida fikrlar o'z tasdig'ini topgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, MAGATE, ilm-fan, muammo, yutuq, analiz, sintez, murakkab kashfiyotlar, imitatsiya, raqamli modellar.

KIRISH

Bugungi kunda texnologik taraqqiyot kundan-kunga yangi bosqichlarga ko'tarilib, inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlar nafaqat ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini, balki eng kichik yoshdagi bolalarning ham hayotini tobora o'zgartirib bormoqda.

Sun'iy intellektning qamrovi tobora kengaymoqda. Ba'zan sohaga oid yangiliklarni o'qib, sun'iy intellekt qoyil qilgan ishlarni fantastik hikoyaga o'xshatasiz, aql bovar qilmaydi. Lekin ular bugungi kun haqiqati. Chindan-da sun'iy intellekt yetakchilikni qo'ldan boy bermayapti. Sun'iy aqlning mashinani boshqarish, jarrohlik amaliyotlarini o'tkazish, uy yumushlarini bajarishga qodirligi, advokatlik, psixologlik, bog'bonlik, o'qituvchilik kabi ishlarni uddalashi hayratingizni oshirishi tabiiy. Yana katta afzalliklaridan biri bunday tizimlar vaqtni tejaydi, navbat kutish yoki qo'l bilan bajariladigan ishlarga sarf etiladigan vaqtda insonga boshqa unumli mehnat bilan shug'ullanish, o'z ustida ishlash imkonini beradi.

METODOLOGIYA

Sun'iy intellekt odatda inson intellektini talab qiladigan vazifalarni bajara oladigan kompyuter tizimlari yig'indisi hisoblanadi. Bu vazifalarga o'rganish, mulohaza yuritish, muammoni hal qilish, idrok etish, tilni tushunish va qaror qabul qilish kiradi. Sun'iy intellekt murakkab muammolarning yechimini topish va samaradorlikni oshirish uchun inson aql-idrokiga taqlid qiladi.

16-iyul – Sun'iy intellekt e'tirof etilgan kun. Sun'iy intellektning bir qancha turlari mavjud. Masalan, tor sun'iy intellekt – (zaif sun'iy intellekt deb ham ataladi) muayyan vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan va cheklangan imkoniyatlarga ega. Boshqa tomondan, umumiy SI – (kuchli SI deb ham ataladi) hali ham faraziy tushuncha

hisoblanadi. U inson kabi fikrlash va o'rganish qobiliyatiga ega, ongli va o'z-o'zini anglaydigan mashinalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

NATIJALAR

Birinchi soha – inson salomatligi. Sun'iy intellekt turli kasalliklarni davolashda yordam berishi mumkin. Undan allaqachon saraton xastaligini aniqlash va davolash maqsadida foydalanilmoqda. Saraton xastaligini davolashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashga oid yangi tajriba dunyoning ko'plab mamlakatlari, xususan, Xitoy, Rossiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiyada izchil o'rganilmoqda. Yaqinda MAGATE bu sohadagi muvofiqlashtirilgan tadqiqotlar loyihasini ishga tushirdi.

Ikkinchi soha – oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi. Sun'iy intellektdan yadro texnologiyalari bilan uyg'un holda foydalanish oziq-ovqat tizimidagi barqarorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Bunda iqlim o'zgarishining nobop ta'sirlariga qarshi turish, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanmagani bilan bog'liq muammolarga yechim topish mumkin bo'ladi. Soha ekspertlari sun'iy intellektni asosan hosildorlikni oshirishga oid ma'lumotlarni tayyorlash va tahlil qilish, tuproqning namligini baholash, sug'orish tizimlarini yaxshilash, oziq-ovqat bilan bog'liq ko'zbo'yamachiliklarni aniqlash hamda bunday holatlarning oldini olish, shuningdek, radioaktiv chiqindilar bilan zararlangan yer maydonlarini sog'lomlashtirish kabi yo'nalishlarda qo'llamoqdalar.

Uchinchi soha – suv zaxiralari va atrof-muhit. Sun'iy intellekt texnologiyalari gidrologik jarayonning turli bosqichlarida suv oqimi yo'nalishlarini, ayni jarayonda iqlim o'zgarishi ta'sirida yuzaga keladigan holatlarni aniqlash va nazorat qilish imkonini beradi. Bu boradagi keng ko'lamli ma'lumotlarning sun'iy intellekt ko'magida samarali va amaliy tahlil qilinishi, o'z navbatida, olimlarga iqlim o'zgarishi va uning butun dunyo miqyosida suv havzalaridan foydalanishga ko'rsatadigan ta'siriga oid jarayonlarni yanada aniq bilib olish uchun qo'l kelmoqda.

To'rtinchi soha – yadroviy ilm-fan va termoyadroviy sintez tadqiqotlari. Sun'iy intellekt yadroviy ilm-fan sohasida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Undan ayni sohada nazariy modellashtirish va sinovlar o'tkazish orqali texnologik innovatsiyalarni ilgari surish va amaliy tadqiqotlarni jadallashtirish, jumladan, yadro va atomga aloqador ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda foydalanilmoqda.

Termoyadroviy sintez tadqiqotlari sohasida sun'iy intellekt qo'llanilayotgani, ayniqsa, ulkan foyda bermoqda. Sun'iy intellekt o'ta ko'lamdor va nihoyatda murakkab vazifalarni ham hal etishga qodirligi tufayli ushbu qaltis yo'nalishda modellashtirish va imitatsiya yo'li bilan sinovlar o'tkazish evaziga yangidan yangi ilmiy kashfiyotlarni qo'lga kiritish imkoniyatlari ortmoqda.

Beshinchi soha – yadro energiyasi. Sun'iy intellektning tatbiq etilishi hisobiga yadro energiyasi yo'nalishida ham sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Yadroviy uskunalarning raqamli modellari bilan sun'iy intellekt tizimlarining o'zaro birlashtirilishi, bir tomondan, yadroviy sohadagi murakkab tartib-taomillarni maqbullashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, yadroviy reaktorlar ishining samaradorligi oshishi va xavfsizligi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Bunday maqbullashtirish, o'z navbatida, yadroviy uskunalardan foydalanish natijadorligini oshirgan holda, ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar miqdorini kamaytiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt elektr stansiyalarining

ishlash jarayonlarini nazorat qilishda ularda yuz beradigan nosozliklarni oldindan aniqlash va tahlil etish borasida bemisli salohiyatga ega.

Oltinchi soha – yadroviy xavfsizlik va radiatsiyadan himoyalaniş. Yadro texnologiyalaridan tinçlik maqsadlarida tobora ko'proq mamlakatlar foydalanmoqda. Ular tomonidan yadro energetikasini rivojlantirish dasturlari amaliyotga izchil tatbiq etilayotganini hisobga olib, MAGATE insonlar va atrof-muhitni zararli darajadagi ehtimoliy nurlanishdan himoya qilish ustida muntazam ishlamoqda.

Sun'iy intellektning yadroviy xavfsizlikni ta'minlash va radiatsiyadan himoyalaniş borasida foydali tomonlari ko'p. Masalan, radiatsiyaviy nazorat tizimlari ma'lumotlarini tahlil etishda undan foydalanilganda, shubhasiz, yadroviy va boshqa xil radioaktiv moddalarni aniqlash hamda tasniflash ishida ulkan samaradorlikka erishish mumkin.

Yettinchi soha – yadroviy kafolatlar. Kafolat – tekshirish natijalari bilan bog'liq texnik chora, degani. Yadro energiyasidan faqat tinçlik maqsadlarida foydalanuvchi mamlakatlar bu boradagi huquqiy majburiyatlarini qanday bajarayotganligi haqidagi ishonçli dalillar MAGATE tomonidan kafolatlar misolida taqdim etiladi. Ayni vaqtda sun'iy intellekt ushbu kafolatlar bilan shug'ullanadigan MAGATE nozirlari va tahlilchilariga tegishli ma'lumotlarni o'rganish borasida yaqindan yordam bermoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ayrim ekspertlar sun'iy intellekt ma'lum toifa va buyruqlarga bo'ysungan holda ishlaydi, unda ijodkorlik yo'q, inson aqli esa bunga qodir, deya fikr bildiradilar. Ammo, gap shundaki, sun'iy intellekt jalb qilingan jabhalar har doim ham ijodkorlikni talab qilavermaydi, ularda aniq faktlar bilan ishlash ustuvorlik kasb etadi. Sanash, saralash, hisoblash kabi yumushlarni sun'iy intellektga yuklagan inson tayyor natijani tahlil qilishga kelganda o'zining tabiiy aqli, tug'ma iste'dodlari va ijodkorlik qobiliyatlaridan foydalangani nur ustiga a'lo nur. Ana shunday uyg'unlikda ishlash muvaffaqiyatga yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Laptev. V.A Sun'iy intelekt tushunchasi va uning ishi uchun huquqiy javobgarlik. "Qonun. Oliy iqtisodiyot maktabi" jurnali.2019 y No 2.-bet 83.
2. Filipova I.A Sun'iy intelektni huquqiy tartibga solish. - Samarqand, 2022-yil, 4-bet.
3. Pardayeva D.N. Niyozov F.X. Xushboqov I.U. Sun'iy intelekt tarixi, rivojlanish bosqichlari hamda insonlar hayotidagi o'rni. Экономика и социум №3(106)-2023.
4. Feokitsitova O. Sun'iy intelekt rivojlanish surati hatto olimlarni ham qo'rqitmoqda: aqlli robotlar insoniyatga qanday tahdid solmoqda. Forum kuni.3.11.2021.
5. Bakhromov A. Juraeva N. Nurfayziyeva M. Oppokkhonov N. Egamnazarov K. Sun'iy intelektning turizm sohasida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishdagi roli. Multidisciplinary Scientific Journal. Iyun-2023.